

YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIK PROFILAKTIKASINING HUQUQIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI



Turabbayev Xusanbek Abdusalamovich

yuridik fanlar nomzodi, professor,

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni profilaktika qilishda amalga oshirilayotgan huquqiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinadi. Yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda huquqiy mexanizmlar (profilaktika inspektorlari, oilaviy nazorat, ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya) va psixologik mexanizmlar (psixologik treninglar, deviant xulq bilan ishlash, rehabilitatsiya markazlari) o'zaro bog'liq holda samarali qo'llanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, jinoyatchilik profilaktikasi, huquqiy mexanizm, psixologik mexanizm, deviant xulq, rehabilitatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и психологические механизмы профилактики преступности среди молодежи в Узбекистане. Показано, что правовые механизмы (инспекторы профилактики, семейный контроль, правовое воспитание в образовательных учреждениях) и психологические механизмы (психологические тренинги, работа с девиантным поведением, реабилитационные центры) эффективно взаимодействуют.

Ключевые слова: молодежь, профилактика преступности, правовой механизм, психологический механизм, девиантное поведение, реабилитация.

Abstract. This article analyzes the legal and psychological mechanisms for preventing youth crime in Uzbekistan. It demonstrates that legal mechanisms (prevention inspectors, family control, legal education in schools) and psychological mechanisms (psychological training, work with deviant behavior, rehabilitation centers) effectively interact.

Keywords: youth, crime prevention, legal mechanism, psychological mechanism, deviant behavior, rehabilitation.

Ma'lumki, zamonaviy jamiyat rivojida yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasiga eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning ijrosiga qaratilgan tub islohotlar bu borada huquqiy va institutsional asoslarni yaratdi. Strategiyada belgilangan vazifalarning muhim yo'nalishlaridan biri – jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, yoshlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish orqali jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishdan iborat [1].

Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikni profilaktika qilishning huquqiy-psixologik mexanizmlari nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, balki jamiyatning ijtimoiy-tarbiyaviy va psixologik ta'sir ko'rsatish tizimlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamon talablari darajasida qayta tashkil etildi.

Xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari tizimi takomillashtirildi, ularning moddiy-texnik bazasi zamonaviy standartlar asosida yangilandi va samaradorligi sezilarli darajada oshirildi. Bu esa yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning qonuniylikka bo'lgan

munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning huquqiy va psixologik omillari o'rganilib, profilaktika faoliyatida individual yondashuv tamoyili asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda huquqiy mexanizmlar qonuniyligini ta'minlash va jazoning ijro etilishini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lsa, psixologik mexanizmlar yoshlarning shaxsiy-ruhiy xususiyatlari, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga ta'sir qilish orqali ularning qonuniy xulqini mustahkamlaydi.

Hozirgi bosqichda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda huquqiy-psixologik mexanizmlar birgalikda qo'llanilishi lozim. Bu esa nafaqat ichki ishlar organlari va sud-huquq tizimi faoliyatini takomillashtirish, balki oila, maktab, nodavlat tashkilotlar va keng jamoatchilikning tarbiyaviy roli orqali ham amalga oshiriladi. Shu tarzda, yoshlarning huquqiy savodxonligi va psixologik barqarorligi ortishi barobarida, ularning qonuniylikka hurmat va shaxs huquqlari qadriga e'tiqod qilishlari ta'minlanadi.

Natijada, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning huquqiy-psixologik mexanizmlari jamiyatda huquq ustuvorligi va xavfsizlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi, yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi hamda zamonaviy O'zbekistonning demokratik, qonuniy va liberal davlat sifatida barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik muammosi zamonaviy jamiyat barqarorligi, huquqiy madaniyat darajasi va ijtimoiy xavfsizlikka bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojida faol ishtirok etuvchi yosh avlodning ijtimoiy-huquqiy tarbiyasi yetarli darajada ta'minlanmagan hollarda, ularning deviant xulq-atvori va huquqbuzarlikka moyilligi ortishi mumkin [8]. Shu sababli, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasi ilmiy asoslangan, huquqiy va psixologik mexanizmlar bilan ta'minlangan maqsadli tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar jinoyatchiligini o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlarda bir qator yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan. Jumladan, T. Moffit (1993) o'z tadqiqotlarida yoshlar jinoyatchiligining ikki modelini –

“o'tkir yoshlik davriga xos huquqbuzarlik” va “umr davomida davom etuvchi deviant xulq” modellarini ilgari surgan [16]. Bundan tashqari, Xirshi (1969) ijtimoiy nazorat nazariyasi orqali o'smirlarda jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri sifatida jamiyat bilan bog'lanishning susayishini ko'rsatib o'tgan bo'lsa [14], psixologik yo'nalishda esa Bandura (1977) ijtimoiy-o'rganish nazariyasi asosida yoshlar xulq-atvorida muhitning rolini asoslab bergan [15].

Shuningdek, B. Samoylov statistik tadqiqotlar asosida yoshlar jinoyatchiligidagi tendensiyalar, ayniqsa, Internet va ijtimoiy guruhlar ta'sirini o'rganadi [4]. U profilaktikada kiberjinoyatchilikka qarshi kurslar, reabilitatsiya dasturlari va huquqiy misollar orqali ishlashni tavsiya qiladi. A. Qalandarov psixologik omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi va yoshlarda jinoyatchilikka moyillikning asosiy sabablari sifatida ijtimoiy-ruhiy beqarorlik, emosional impulsivlik va huquqiy madaniyatning past darajasini ko'rsatadi [5]. Uning fikriga ko'ra, profilaktikada huquqiy bilim emas, balki huquqiy muomala madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sh. G'ulomov ijtimoiy-iqtisodiy omillar va oilaviy muhitning ta'sirini tahlil qiladi. U profilaktika samaradorligini oshirish uchun individual yondashuv, shaxsiy reabilitatsiya rejalari va mahalla bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [6].

Soha mutaxassislari yoshlar o'rtasida jinoyatchilik profilaktikasini oila, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorligi orqali hal qilish zarurligini ta'kidlaydilar.

Xorijda yoshlar jinoyatchiligi keng doirada o'rganilgan bo'lib, ko'pgina tadqiqotlarda profilaktikada huquqiy nazorat, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va psixologik reabilitatsiya dasturlarini qo'llash samarali ekanligi qayd etilgan. Masalan: AQSHda Community Policing dasturlari orqali yoshlar bilan profilaktik muloqotni kuchaytirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan [11, 12].

Yevropa Ittifoqida Youth Justice System modellari o'smirlarga nisbatan tarbiyaviy xarakterdagi huquqiy choralarni qo'llashga asoslanadi.

Mamlakatimizda yoshlar jinoyatchiligini o'rganish va profilaktika qilish borasida qonunchilik bazasi shakllangan: “Jinoyatchilik profilaktikasi

to'g'risida"gi, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonunlar va bir qator qarorlar soha rivojida muhim o'rin tutadi [2]. Ilmiy tadqiqotlarda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaviy muhitni barqarorlashtirish va profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish asosiy yo'nalishlar sifatida qayd etilmoqda.

Xorij tajribasiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yoshlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning 15–20 % ni tashkil etadi. AQSHda esa bu ko'rsatkich 17–18 % atrofida bo'lib, asosiy xavf omillari sifatida ijtimoiy muhit, ta'lim tizimidagi muammolar va Internet muhitidagi zo'ravonlik kontentlari e'tirof etiladi [10,12].

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2023-yillar davomida yoshlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar sonida ma'lum darajada kamayish kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda yoshlar tomonidan 14 mingdan ziyod jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 11 ming atrofida qayd etilgan. Bu esa profilaktik ishlar samaradorligining oshib borayotganini anglatadi [3].

O'zbekistonda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar dinamikasi ijtimoiy-iqtisodiy holat, Internet muhiti, psixologik bosim va oilaviy nazorat kuchiga bevosita bog'liq. So'nggi yillarda:

- profilaktika inspektorlari faoliyati kuchaytirilgan;
- ma'muriy nazoratning elektron tizimlari joriy etilgan;
- ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlik bo'yicha darslar soni oshirilgan.

Shu bilan birga, Internetdagi zararli kontent, oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar, tengqurlar bosimi kabi omillar ba'zi hududlarda o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikka moyillikning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda huquqiy va psixologik mexanizmlar o'zaro bog'liq holda ishlashi lozim.

1. Huquqiy mexanizmlar:

- profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish;
- huquqbuzarlikka moyil yoshlar ro'yxatini yuritishning elektron tizimini shakllantirish;

- ota-onalarning huquqiy mas'uliyatini kuchaytirish;

- ta'lim muassasalarida majburiy huquqiy tarbiya darslarini joriy etish;

- sudlar tomonidan tarbiyaviy jazolarni amaliyotga keng qo'llash.

2. Psixologik mexanizmlar:

- stressni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatuvchi treninglar;

- deviant xulq belgilariga ega yoshlar bilan individual psixologik ishlash;

- agressiyani nazorat qilish dasturlari;

- ijtimoiy moslashuv va rehabilitatsiya markazlari faoliyati [9].

3. Kompleks yondashuv. Huquqiy va psixologik mexanizmlarning birgalikda ishlashi natijasida yoshlarning xulq-atvorini to'g'ri boshqarish va jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, bugungi kunda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda quyidagilar yechim sifatida taklif etiladi:

1) yoshlar bilan ishlovchi profilaktika inspektorlari va psixologlar uchun yagona tayyorlov dasturi joriy etish;

2) oilaviy tarbiya sifatini oshirish maqsadida mahallalarda «Ota-onalar maktabi»ni tashkil etish.

3) Internet xavfsizligi bo'yicha maxsus huquqiy-psixologik kurslarni joriy etish;

4) jinoyatchilikka moyil yoshlar uchun sog'lom muhit yaratish maqsadida sport, madaniyat va ta'lim loyihalarini kengaytirish;

5) ta'lim muassasalarida «Yoshlar huquqiy madaniyati» fanini yo'lga qo'yish;

6) jinoyat sodir etgan yoshlarning rehabilitatsiyasini kuchaytirish va ularni qayta ijtimoiylashtirish dasturlarini kengaytirish [10].

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, yoshlar jinoyatchiligi – bu jamiyat xavfsizligi, barqarorlik va kelajak taraqqiyoti uchun katta xavfdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, profilaktika ishlari faqat huquqiy yoki psixologik usullar bilan cheklanib qolmasligi zarur. Kompleks yondashuv – huquqiy-tarbiyaviy, psixologik, ijtimoiy va internet xavfsizligi sohalarini qamrab olgandagina ijobiy samaraga erishish mumkin.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, xususan, yoshlar ishlari agentligi, profilaktika

inspektorlari va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik natijalari ijobiy tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Biroq, raqamlashuv jarayoni va Internet xavfi ortib borayotgani sababli yoshlar bilan profilaktika tadbirlari yanada zamonaviy shakllarda tashkil qilinishi talab etiladi.

Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish huquqiy va psixologik mexanizmlarni o'z ichiga olgan

kompleks tizimni talab etadi. Xorij tajribasi va milliy qonunchilik asosida amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy natija bermoqda. Biroq, profilaktikaning samaradorligini oshirish uchun oila, maktab, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, psixologik reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi xalqiga murojaati. – T.: "O'zbekiston", 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021–2023 yillar bo'yicha jinoyatchilik statistikasi.
4. Samoylov B. Yoshlar jinoyatchiligi: tendensiyalar va profilaktika usullari. – T., 2020.
5. Qalandarov A. Yoshlar va huquqiy madaniyat. – T., 2021.
6. G'ulomov Sh. Oila va ijtimoiy muhitning profilaktikadagi ahamiyati. – T., 2022.
7. Anderson, C., Bushman, B. Human Aggression and Violence. Psychology Press.
8. Baumeister R. The Self Explained. Guilford Press.
9. Bronfenbrenner U. Ecological Systems Theory. Harvard University Press.
10. Лернер Р. Психология развития подростков. – М.: АСТ, 2007.
11. European Youth Crime Report (2022). Berlin: EU Research Center.
12. United Nations Crime Trends. UNODC. 2023.
13. Moffitt, T. E. Adolescence-Limited and Life-Course-Persistent Antisocial Behavior. Psychological Review, 1993.
14. Hirschi T. Causes of Delinquency. University of California Press, 1969.
15. Bandura, A. Social Learning Theory. Prentice Hall, 1977.
16. Moffitt T.E. Adolescence-limited and life-course persistent antisocial behavior: A developmental taxonomy //Psychological review. 1993. Vol. 100. No. 4. P. 674-701.

